



TARIX TA'LIMIDA MAHALLIY TARIXNING AHAMIYATI: TOSHKENT VILOYATI PARKENT TUMANI MISOLIDA

Ozodova O'.D.

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Tayanch soʻzlar: ta'lim, mahalliy tarix toponomika, farn, Sanaganak, Kumushkon.

Ключевые слова: образование, история, топонимика, фарт, Санаганак, Кумушкон.

Key words: education, history, toponymy, farn, Sanaganak, Kumushkon.

Kirish. Har qanday sohaning tizimli rivojlanishi bevosita ta'lim tizimi bilan bog'liqligi hech birimizga sir emas. Har qaysi davrda ta'limga jiddiy e'tibor qaratilgan va buning natijasida davlatning iqtisodiy, siyosiy, madaniy va hattoki, harbiy salohiyati ham bevosita rivojlangan. Sababi, qanday soha bo'lmasin, o'sha sohani chuqur bilish yuksaklikka olib boradi. Shu sababdan, yurtimizda ta'lim samaradorligini oshirishga katta ahamiyat beriladi. Ushbu holat ta'lim to'g'risidagi qarorlardan ham o'z aksini topadi. Bu qarorlarda Uzluksiz ta'lim tizimida ijtimoiy fanlarni o'qitish tartibi va tamoyillari to'g'risida qonun ishlab chiqish va uni amaliyotga joriy etish ehtiyoji ham mavjudligi ta'kidlab o'tiladi [1].

Bundan tashqari, yurtboshimiz ham o'z nutqlarida ta'lim sifatini oshirishga katta ahamiyat qaratish lozimligi haqida so'z olib borgan. Ushbu nutqlarning birida jumladan, shunday deyiladi: "Aynan ta'lim va ma'rifat bashariyat farovonligining asosiy omillaridan hisoblanadi, insonlarni ezgulikka da'vat etadi, saxovatli, sabr - qanoatli bo'lishga undaydi. Muqaddas islom dinimiz bizga aynan shuni o'rgatadi. Bunday yondashuv - davr talabidir [2]". Shunday tamoyillar asosida ta'limning bir qancha sohalarini tizimli ravishda rivojlanmoqda. Tarix ta'limi ham shular jumlasidandir. Umuman olganda tarix sohasi juda katta jarayonlarni o'z ichiga oladi. U borgan sari kichrayish xususiyatiga ham ega. Masalan, mingyilliklardan asrlarga, asrlardan esa yillarga. Qadimgi davr tarixini o'rganar ekanmiz, bevosita mingyilliklar haqida gapiradi, ammo dabr

o'tishi bilan, yillar hattoki soatlarni ham aniq bilishga va aniq ma'lumotlarni yetkazishga harakat qilamiz.

Geografik nuqtai nazardan ham shunga o'xshash. Ya'ni, odatda, muhim strategik va markaz hududlar yoki katta-katta hududlarning tarixi batafsilroq o'rganiladi. Ular haqida ma'lumotlar ham tabiiyki, yetarlicha bo'ladi. Ammo bugungi kunda muhim strategik va katta hududlar to'g'risida umumiy ma'lumotlar yetarlicha o'rganilgan. Ularni qayta o'rganishdan ko'ra, ma'lumotlarni umumiydan xususiyga o'tkazish - ilmiy jihatdan ancha foydaliroq bo'ladi. Bu jarayonni shartli ravishda "Mahalliy tarixni o'rganish" deb nomlash mumkin. Tarix sohasi vakillari albatta, o'zi yashaydigan hudud tarixini o'rganishga harakat qiladi va ta'kidlash lozimki, tarixchi inson o'zi yashaydigan hudud tarixiga doim qiziqish bildiradi va befarq bo'lmaydi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Yuqorida ta'kidlanganidek, umumiy hududlar uchun har qaysi davrdagi ma'lumotlar qanday hajmda bo'lmasin, mavjud bo'ladi va o'rganiladi. Xususan, Toshkent vohasi tarixi ham atroflicha o'rganilgan. Qadimgi davrdan to hozirgacha tarixining aksariyat qismida Chirchiq va Ohangaron havzalari va bugungi kundagi poytaxt qismining tarixi mufassalroq o'rganilganligi hech birimizga sir emas. Toshkent vohasining boshqa hududiy birliklari esa nisbatan kamroq o'rganilgan.

Jahon tajribasida ham tarixni yanada aniqlashtirish va chuqur o'rganish maqsadida umumiylikdan xususiylikka o'tishga harakat qilinadi. Jumladan, Amerika tajribasida har bir shtatning tarixiga alohida ahamiyat bilan o'rganiladi va o'qitiladi. Amerika jamiyatini birlashtirish uchun o'quv dasturida, masalan, Kaliforniya maktablarida ayollar, qora tanlilarning millati va mamlakati oldidagi xizmatlarini nishonlash, meksikaliklar, tadbirkorlar, sharqiy osiyoliklar, oq tanlilar, hindular va ishchilar tarixi tarzidagi dasturlar talab qilinadi [3].

Mahalliy, ya'ni kichik hududiy birliklarning turli davrlardagi tarixini o'rganishning lozimligini jahon tajribasi ham isbotlab bera oladi. Misol uchun, Parkent tumanini olaylik. Toshkent vohasining Toshkent viloyati qismiga kiruvchi va Toshkent shahriga nisbatan sharqda joylashgan bu tumanning ham o'ziga xos tarixi mavjud. Tumanning va undagi qishloqlarning nomlanish tarixi, ya'ni, toponomikasi, tumanda insonlar qaysi davrdan boshlab yashab kelayotganligi, tarixiy davrlardagi ahamiyati va yangi davr tarixidagi o'rni haqida ham bir qator olimlar o'z tadqiqot ishlarini olib borganlar yoki tadqiqot ishlarining bir qismida ta'kidlab o'tganlar. S. Xusomiddinov, M. Shermatov [4], S. Qorayev [5], A. Hikmatov [6] kabilar shular jumlasidandir. S. Xusomiddinov va M. Shermatovlar o'zlarining tadqiqot ishlarida tumaning geografik holati, tarixi va toponomikasi haqida atroflicha ma'lumot nerib o'tishgan. S. Qorayev



esa, o'z tadqiqot ishi davomida yurtimizning turli joylarining toponimlari qatorida Parkent toponimlari haqida ma'lumot berib o'tishgan. A. Hikmatov esa, tumanning yangi davrdagi holati haqida alohida to'xtalgan.

Muhokama va natijalar. Mahalliy tarixni o'rganish tarixning yangi jabhalariga ochishga, o'rni kelganda, yangidan yangi arxeologik manzilgohlarning paydo bo'lishiga zamin yaratadi. Misol uchun Parkent tumanining Boshqizilsoy qishloq fuqorolar yig'ini tarkibiga kiruvchi Nevich qishlog'idagi qoyatoshlarda ham turli devoriy rasmlar mavjud. Bu rasmlar petrogliflar - rasmiy yozuvlar deb tahmin qilinadi.

1934-yili qadimshunos olim A. Mirmuhamedov Boshqizilsoyning yuqori oqimida joylashgan Nevich qishlog'i yaqinida qoya toshlarga o'yilgan qadimiy tasvirlarni (petrogliflarni) aniqlagan. A. Kabirov ularning batafsil tahlili asosila 1969-yili 600 dan ziyod tasvirlarni ajratgan. Petrogliflarning bir qismi qora qoyalarda hanuzgacha aniq saqlangan bo'lsa, ba'zilar vaqt o'tishi bilan xiralashib qolgan. Olimlarning aniqlashicha, bu tasvirlar jez asri va undan keyingi davrlarda yaratilgan. 1982-yili "Koinot" ilmiy ishlab chiqarish birlashmasining "Nevich" tajribagohini qurish jarayonida shu atrofda qadimgi qabriston, qurollar va sopol buyumlar topilgan [7].

Qishloqqa chegarada bo'lgan hududlar yoki umuman boshqa qishloqlarda ham odamlar juda qadimdan yashab kelganligi tahmin qilinadi. Kelgusi istiqbolli tadqiqotlarda yangidan yangi arxeologik manzilgohlarning o'rni aniqlanishi ham ehtimoldan holi emas.

Bundan tashqari Zarkent hududida arxeologik izlanishlar natijasida topilgan Qalai Bolo shahristoni, Nomdanak hududidan topilgan shahriston, Quyi Hisorakdagi Chilontepa, Qirg'iz qishlog'idagi Qirg'iztepa, So'qoq qishlog'idagi Yumaloqtepa kabi bir qancha shahriston izlari misol bo'la oladi. O'rganilmagan va o'rganish olib borishga muhtoj manzillar ham talaygina, albatta.

Tumanning nomlanish bo'yicha ham turli versiyalar mavjud. Ayrim tarixchilar "par" ya'ni "juft shahar" deb atasa, yana ayrimlari "parilar shahri" deya nisbat berishadi. Ammo yana bir tahmin borki, u tumanning qadimiy e'tiqodi bilan ham bog'liq bo'lishi mumkin. Akademik M.Is'hoqov tumanning nomlanishini zardushtiylik dini bilan bog'laydi. U Parkent atamasini zardushtiylikda muqaddas bo'lgan farn atamasi bilan bog'laydi.

Farn uzoq ajdodlarimiz tasavvurida din-u diyonatda, iymon-u e'tiqodda, ezgulik va adolatda sobiqadam bo'lgan insonlarga berilgan ilohiy baxt tajalliyisidir. "Avesto" da keltirilishicha, farniga sanoqli kishilar loyiq ko'rilgan. Jumladan, Qayqubod, Kaykovus, Kaypishin, Kayorish, Siyovushlar ilohiy farniga erishilgan [8]. Bu esa qaysidir ma'noda tuman hududida zardushtiylik

tarqalganligi va taraqqiy etganligiga ishora bo‘lishi mumkin. Bugungi kungacha tumandan turli otashkadalar va ibodatxona qoldiqlari topilmagan. Ammo kelgusi tadqiqotlarda M. Is’hoqovning fikrlarini asoslovchi dalillar topilishi mumkin.

Tumanning tarixiy ildizlarinining anchayin chuqur ekanligiga isbot o‘laroq tumandan II-VII asrlarga oid qabr topildi [9]. Ushbu qabr Parkent tumani Kumushkon qishlog‘idan topilgan. Ushbu qabrning ahamiyatli jihati shundaki, qabrning chetki qismlariga turli xil ko‘zalar terib chiqilgan va hattoki ulardan birida sut yoki qaymoqning kukun sifatida qolgan qoldig‘i ham topilgan. Bu esa tumaning tarixi ancha qadim davrlarga borib taqalishini va mufassal o‘rganilishga muhtoj ekanligidan dalolat beradi.

Bundan tashqari, Sanganak qishlog‘ida XV-XVI asrlarga oid tangalar ham topilgan [10]. Tangalar Parkentda, umuman olganda, Toshkentda zarb qilinmagan. Balki Samarqandda zarb etilgan. Bu esa XVI asrda tumandagi tovar-pul munosabatlarining qay darajada rivojlanganligini ko‘rsatib beradi.

Xulosa. Umuman olganda, mahalliy tarixni o‘rganish tarixiy faktlarning yanayam aniqlashishiga yordam beradi. Tarixchi kichik bir hududning, aytaylik, o‘zi tug‘ilgan tuman yoki shaharchanining tarixini o‘rganar ekan:

- birinchidan, tarixchi o‘z ishiga muhabbat bilan yondoshadi;
- ikkinchidan, faqatgina nazariy ma‘lumotlar bilan cheklanibgina qolmasdan, amaliy ishlar ya‘ni dala tadqiqoti bilan ham ishlashga majbur bo‘ladi.

Va natijada olib borilgan tadqiqot ishi ham faqatgina u yoki bu yozma manbalar asosida yozilmasdan, mahalliy aholining avloddan avlodga o‘tib kelayotgan afsona va rivoyatlari bilan ham boyitiladi. Agarda tarixning yangi davri yoziladigan bo‘lsa, tarixning jonli guvohlari yordamida tadqiqot ishlari olib boriladi. Tadqiqot natijasida esa, o‘zgacha va xalqchil ilmiy ish paydo bo‘ladi. Sababi mahalliy tarixni o‘rganish albatta, o‘sha yerning mahalliy aholisi bilan muloqot qilishni taqozo etadi va mahalliy aholining so‘zi bilan yoziladi va tarixchi olimlardan tashqari, tarixga qiziquvchi oddiy xalqqa ham beminnat xizmat qiladi.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-sonli farmoni. Toshkent. 8 oktyabr 2019 yil.
2. Мирзиёев М. “Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз” Т.: 2017. В.28.
3. Toshtemirova S., Ilmurodova F., Sa’dullayeva M. Tarix o‘qitish metodikasi. T.:2023. B.56
4. Хусомиддинов С., Шерматов М. Паркент тумани. “O‘qituvchi” nashriyoti. T.: 2006.



5. Qorayev S. Toponimika. O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti T.: 2006.
6. Hikmatov A. Parkent javohirlari . Namangan nashriyoti. 2011.
7. Хусомиддинов С., Шерматов М. Паркент тумани. “O‘qituvchi” nashriyoti. T.: 2006. B.45.
8. Хусомиддинов С., Шерматов М. Паркент тумани. “O‘qituvchi” nashriyoti. T.: 2006. B. 54.
9. <https://kun.uz/news/2023/09/10/kumushkonda-ii-vi-asrlarga-oid-qabr-topildi>
10. <https://oz.sputniknews.uz/20220919/parkentdan-qadimgi-mis-tangalar-xazinasi-topildi---foto-28368417.html>

РЕЗЮМЕ

Ushbu maqolada tarix ta’limida mahalliy tarixning o‘rni, uni o‘rganishning afzalliklari misollar yordamida tushuntirib berilgan. Toshkent viloyati Parkent tumanini o‘rganish tadqiqoti maqolada namuna sifatida keltirilgan.

РЕЗЮМЕ

В данной статье объясняется роль истории в историческом образовании на примерах ее изучения. В качестве примера в научной статье взято исследование Паркентского района Ташкентской области.

SUMMARY

This article explains the role of history in history education, with the help of examples of its study. The study of the Parkent district of the Tashkent region is taken as an example in the research article.